

## ALISHER NAVOIYNING "XAMSA" DOSTONIDA SALAFI SOLIFLARNING MADHI

*Farg'ona davlat universiteti Filologiya fakulteti 2-bosqich 22.94-guruh talabasi*  
**Rahmonaliyeva Mohinur Dilmurod qizi**

*Anotatsiya: Ushbu maqolada Navoiyning "Xamsa" dostonida o'z salaflarining ta'riflari, ularning so'z mahoratlari, kamchiliklari va boshqalar haqida fikr yuritilgani.*

*Kalit so'z: Salafi soliflar, Jomiy, Ganjaviy, Dehlaviy (Sultoni), fors, arab, turk, hind tillari, professor Chelkovskiy, Firdavsiy "Shohnoma", "Fotihat ush-shabbob", "Xamsat ul-mutahayyin", devon, mavj urgan dengiz, ganj, qal'a, qasr, shahar, bo'g', javhari jon obi hayvon, so'z xazinaboni, Merkuriy (Atorud), Oy, Mushtariy, jom may, oshiq, badiiy san'at, ipga terilgan inju, masnaviy, nasr nazm, so'z o'yini, tashbeh, to'p, go'y, chavgon, shatranj: oq ot, qora fil, piyoda, Ibn Xojib "Kofiya", Ibn Xojar "Tafsir", Imomi A'zam "Fiqh", tush, dard g'am, oshiq, sarguzasht, pashsha, fil.*

Alisher Navoiy o'zigacha yashab, ijod qilgan shoir va mutafakkirlarini o'ziga ustoz deb bilgan. Bularga yaqqol misol tariqasida, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy hamda Abdurahmon Jomiy aytib o'tsak bo'ladi.

Nizomiy Ganjaviy taxminan 1141-1209 yillarda yashab ijod etgan. U Ozarbayjonning Ganja shahrida tug'ilgan. Fors tilida ijod qilgan turkiy shoirlar.

Professor Chelkovskiyning fikriga ko'ra Firdavsiyning "Shohnoman" asarini o'qish sevimli mashg'uloti bo'lgan. Firdavsiyning ijodi Nizomiyga shu darajada ta'sir qilganki, Firdavsiyning asarlarini o'qish Nizomiy uchun asosiy ilhom manbai bo'lib qolgan va "Iskandarnoma" asarini yozgan. Buni "Iskandarnoma" da "Shohnoma" dan sifat bergan.

Ganjaviyning "Xamsa" si " Panj Ganch" deb ham ataladi. Ushbu "Xamsa" da tarkibiga quyidagi dostonlar kiradi:

1. "Mahzan ul-asror"
2. "Xusrav va Shirin"
3. "Layli va Majnun"
4. "Haft paykar"
5. "Iskandarnoma"

Dehlaviy 1253-1325 yillarda yashab ijod qilgan. U arab, fors, turk, hind, hamda urg'u tillarida ijod qilgan. Ilk asarlarini "Sultoni" taxallusida yozgan.

Xusrav Dehlaviy "Xamsa" si

1. "Matla' ul-anvor"
2. "Shirin va Xusrav"
3. "Majnun va Layli"
4. "Hasht behisht"
5. "Oyinayi Iskandariy"

Jomiy 1414-1492 yillarda yashab ijod qilgan fors- tojik shoiri. U Hirotda tavallud topgan. Fors, tojik arab tillarida ijod qilgan. "Fotihat ush-shabbob" lirik she'rlarining birinchi

devoni hisoblanadi. Ba'zi olimlar uning asarlarini umumiy soni 100ga yaqin deb taxmin qiladilar. Navoiy "Xamsad ul- mutahayyirin" da uning 38 asarini nomini yozib ko'rsatadi.

Jomiy "Xamsa"si tarkibiga quyidagi dostonlar kiradi:

- 1."Tuhfat ul-ahror"
- 2."Suhbat ul-abror"
- 3."Yusuf va Zulayho"
- 4."Layli va Majnun"
- 5."Xirodnomayi Iskandariy"

Navoiy "Layli va Majnun" dostonining 5 -6 boblarida salafi soliflarga ta'rif berib o'tgan.Dostoning 5-bobida Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviylar madhini o'z ichiga oladi.Navoiy bu bobda so'zni mavj urgan dengiziga, gavharga o'xshatadi.

Nizomiy Ganjaviy madhida esa uning fazilatda Turdagi Muso, qanoatda Qofdagi Anqoga o'xshatadi va quyidagi misralarini aytib o'tadi.

Ham Turdi fazilat uzra Muso

Ham Qofi qanoat uzra Anqo

Ganjaviy ta'rifiga to'xtaladigan bo'lsak:

Ul Ganjada ganjdek nihoni,

Besh ganj qo'yib vale nishoni.

Navoiy bu misralarida so'z o'yinidan ham mohirlik bilan foydalangan, ya'ni ganjdek xazina yashiringan deganda bu yerda Ganjaviyni tahallusi bilan bir qatorda yashagan joyiga ishora qilib qolmay uning ijodiy mahoratini, salohiyatini, ilmini, nazim yo'lidagi ijodiy harakatlarini ham xazinaga o'xshatganini ko'rsak bo'ladi.

Navoiy Dehlaviy ta'rifiga to'xtalar ekan uni "sohiri Hind" (hind sehrgari) deb ta'riflash bilan birga uni fitnagarlikda Kashmir o'lkasiga, kitobdagi yozuvlar Bobil mamlakatining katta yo'lidagidek deb ta'riflab o'tadi.

Navoiy ularning shaxsiga ta'rif bilan bir qatorda, ularning yozgan asarlariga ham to'xtalib o'tadi:

Hamda qal'a uchun kerakdir shahr,

Ham qasrg'a bog'-u sababini bahr.

Bu yerda salaflarning "Layli va Majnun" dostonlaridan mavzuni "qal'a" va "qasr" ga, o'zining dostonini esa "qal'a" va "qasr" atrofidagi "shahar" va "bog'" ga o'xshatadi.

"Saddi Iskandariy" dostonida esa Navoiy so'zni " javhari jon","obi hayvon" deb sifat beradi.

Ushbu asarda Nizomiy Ganjaviy ta'rifiga to'xtalar ekan uni so'z xazinaboni, Merkuri(Atorud) esa uning xizmatkori deb aytib o'tadi

Xusrav Dehlaviy madhida esa uni so'z jodugar, ilm-u hikmat bilimdoni deb ta'rif beradi.

So'z avjiga gar ul mahi xovariy,

Bu gar yo'q mahi xovariy Mushtariy

Ushbu misralarda so'z avjiga Nizomiy oy bo'lsa Dehlaviy Mushtariydir deb ta'rif berib o'tadi.

Dema jom ila mayli, nazmi ravon,

### Yer-u ko'kda e'lon ayladi notavon

Yuqoridagi misralarda esa Navoiy Nizomiy va Dehlaviyning nazmdagi izdoshlarining bo'lgan Jomiyning madh etganini ko'rsak bo'ladi. U Jomiyga ishora qilib, uning nazmini "jom" va "may" deb ta'riflab bu nazmdan yer-u ko'k eli mast-u notavon bo'lganini aytadi. Bu misralar orqali biz Jomiyning nazmdagi ijodi shunchalar serqirra ekanligini jom ichidagi mayga o'xshatganini ko'rsak bo'ladi. Bu maydan ichgan odamlar, ya'ni Jomiyning ijodi bilan tanishgan odamlar uning asarlariga xuddiki mayga oshiq bo'lgan odamday deb qiyoslaganini ko'rsak bo'ladi.

"Sab'ai sayyor" dostonida Nizomiy va Dehlaviy ta'rifi bilan birga nasr va nazmga to'xtalib o'tadi, va ularni bir biriga qiyoslaydi, nazmni nasrdan ustun ekanligini aytadi. She'riy asarlardan badiiy san'atlarni, ta'sirli iboralardan ko'p qo'llashni injuni ipga terishga qiyoslaydilar. Nasr esa sochilgan javohirga qiyoslaydilar, shu sababli uni go'zallikdan mahrum deb yozadi. Nazm shakllari ichidan masnaviyga alohida to'xtalib uni "vasiy' maydon" (keng maydon).

Masnaviykim, burun dedim oni,  
So'zda keldi vasi' maydoni

Nizomiy ijodidagi masnaviy yaratishda birinchilardan bo'lganini quyidagicha ta'riflaydi, ya'ni ijod maydonida to'pni olib chiqib ketdi, ya'ni go'y va chavgon o'yinida yutdi deb aytib o'tadi.

Dehlaviy ta'rifiga to'xtaladigan bo'lsak Xamsaga javob yozgan shaxs sifatida, uni "hind sehgari, qaro balo ofati Xudo" deb tashbih beradi. Navoiy o'ziga ustoz deb bilgan bu adiblarni shatranj o'yinidagi oq ot ya'ni Nizomiy, qora fil esa Dehlaviy deb o'zini oddiy piyodaga qiyoslaydi

Cheksa shatranj ikki saf oq-u qaro,  
Xas ne qilgan, chunki tushsa arsa aro  
O'zni to'play bisot aro payvasta,  
Ot ila pil ayog'i ostida past.

Dostonning keyingi bobi Jomiy madhiga bag'ishlangan bo'lib, uni ilm daryosiga o'xshatadi. Uning arab tilidagi bilimdonligini "Kofiya" asarining muallifi Ibn Hojibga, tafsir ilmida esa yuzta Ibn Hojarga, fiqh ilmida Imomi A'zamga qiyoslaydi.

Alisher Navoiy salafi soliflarni ijodini maqtash, ma'qullash bilan birga ulardan uzun so'ragan xolda mulohaza bildiradi. Adib bu dostonning yozishdan oldin tush ko'rganini unda 7 gumbaz, 7 gumbaz ichida 7xil rangdagi mutasaddini ko'rganini, shu yerdan 7 kun yurib, 7 afsona tinglaganini, bir mo'ysafid unga avvalgi dostonlardagi qusurlarni tuzatishni so'raganini, uyqudan uyg'ongach, tush tadbirini so'ragandan so'ng doston yozishga kirishganini aytadi. Shundan so'ng u o'zigacha yozilgan Bahrom haqidagi hikoyalarni sinchiklab o'rganadi va ustozlarining uchta kamchilik va e'tirozlarini aytib o'tib ketadi:

Biri bukib yo'q anda moyayi dard  
Qildilar ishq so'zidan ani farq

Navoiyning dastlabki e'tirozlaridan biri bu dostonda dard-u g'amga yetarlicha e'tibor bermay uni ishqdan xoli tasvirlaganliklarni aytib o'tadi

Keyingi e'tirozlaridan biri bu Bahromning qasr ichidagi hikoya tinglash holatlaridan bo'lib, o'zi sarxusht bo'lgan malikalarni g'aflat holatidagi shoxga afsonalar aytishi asossiz, deydi.

Uchinchi kamchiliklari biri dardsiz va nodon kishini sargushatlarini ko'rsatishni maqsad qilib olganliklarini aytadi

Bo'yla nodon uchun yozib avsof,

Anga qilgaylar o'zlarin vassof.

Bob so'nggida esa Navoiy kamtarlik bilan o'zini salaflarning faqir shogirdiga va pashshaga qiyoslab, u bu asarni yozishda qilayotgan ishlarini quyidagicha ta'riflaydi: u osmon tomiga narvon, quyoshga shamdon, o'rgimchak ipidan kamon yasab, ajdarhoni tutmoqchiman deb aytib o'tadi. Allondan doston yozish uchun madad so'raydi.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bu maqolada Navoiyning qay darajada so'z qo'llash mahoratiga ega ekanligini ko'rsak bo'ladi. Buning yaqqol misoli yuqorida salaflarga bergan go'zal ta'riflaridan, so'z o'yinlaridan bilsak bo'ladi Navoiy ustozlarini e'zozlab ta'riflash bilan birga ulardan uzur so'ragan xolda hurmat bilan asarlaridagi kamchiliklarini aytishidan uni naqadar haqgo'y, adolatparvar shaxs sifatida ko'rsak bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Navoiyshunoslik Sh. Sirojiddinov, D. Yusupova
2. B. Eraliyev "Majoziy ishq bulog'i"
3. Adabiyotshunoslik terminlari izohli lug'ati
4. "Xamsa" sarlavhalari badiiyati Abdulhamid Qurbonov
5. Navoiyga qaytish Ibrohim Haqqul